

sohalarda o'zlarining g'oyalarini hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yangi ish o'rinlarini yangi tashkil etishi, amalga oshirilishi hududlarning soliq salohiyatini oshirishga o'zining hissasini qo'shadi.

6. Moliyaviy risklarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish. Aholining moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq risklarni to'g'ri baholash va boshqarishni bilishlari kerak. Ular yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlarga tayyor bo'lishlari va ularga to'g'ri javob bera olishlari kerak.

ZAMONAVIY OLIY TA'LIM TIZIMNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Amonboyev Mahammadsidik

Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, an'anaviy ta'lim modeli bilan zamonaviy ta'lim tizimi o'rtasidagi asosiy farqlar qiyosiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ta'lim shakllari, talabalar roli, ta'limning asosiy maqsadi, texnologik ta'minoti, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik darajasi kabi muhim omillar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy oliy ta'lim tizimi raqamlashtirish, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, gibrid o'qitish shakllari hamda mehnat bozori bilan integratsiya orqali yanada samarali va moslashuvchan tizim sifatida shakllanmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonida sun'iy intellekt, raqamli platformalar va innovatsion pedagogik yondashuvlarning keng qo'llanilishi talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilishi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: zamonaviy oliy ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari, gibrid ta'lim, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, akademik mobillik, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, innovatsion ta'lim muhitlari.

Globalashuv, raqamli iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim tizimining mazmuni va shakli jadal o'zgarib bormoqda. Jahon miqyosida universitetlar innovatsiyalar markaziga aylanib, ilm-fan, texnologiya va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirmoqda. Natijada zamonaviy ta'lim jarayonida raqamlashtirish, akademik mobillik, ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilganlik va kompetensiyaga asoslangan o'qitish kabi yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy darajada esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq. Shu bois mamlakatda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish hamda ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Mazkur masala mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi "O'zbekiston-2030" strategiyasi maqsadlari bilan ham uzviy bog'liq. Strategiyada oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish uchun ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish muhim ahamiyat

kasb etadi. Xususan, xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan ta'limni raqamlashtirish, universitetlarning innovatsion faoliyati, ta'lim sifatini oshirish hamda mehnat bozori bilan integratsiya masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy ta'lim tizimining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Amerikalik tadqiqotchi Philip G. Altbach tomonidan olib borilgan "Global perspectives on higher education"²⁰⁹ nomli tadqiqotda oliy ta'limning globallasuvi va universitetlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik jarayonlari tahlil qilingan. Olimning ta'kidlashicha, so'nggi 30 yil ichida dunyoda oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar soni 100 milliondan ortiqdan 230 million nafardan ziyodga yetgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro akademik mobillik ko'rsatkichlari ham sezilarli oshib, 2020-yilga kelib xorijda tahsil olayotgan talabalar soni 6 million nafarga yaqinlashgan.

Britaniyalik olim O.Rayevnyeva o'zining "Models of interaction between economic development and higher education"²¹⁰ nomli tadqiqotida universitetlarning bilimlar iqtisodiyotidagi rolini o'rgangan. Unga ko'ra, rivojlangan davlatlarda ilmiy tadqiqotlarning qariyb 60–70 foizi aynan universitetlar hissasiga to'g'ri keladi. Tadqiqotchining fikricha, zamonaviy universitetlar nafaqat ta'lim beruvchi muassasa, balki innovatsiyalarni yaratadigan va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda.

O'zbek olimi S.Saloxitdinov tomonidan yozilgan "Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning zamonaviy konsepsiyalari va innovatsion mexanizmlari: milliy va xalqaro tajribani taqqoslamali tahlil qilish asosida takomillashtirish yo'nalishlari"²¹¹ nomli ilmiy ishda milliy oliy ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekistonda oliy ta'lim qamrovi 2016-yildagi 9 foizdan 2023-yilda 38 foizga yetgani qayd etilgan. Muallif ta'lim sifatini oshirish uchun universitetlarning ilmiy salohiyatini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligini asoslab beradi.

Shuningdek, tadqiqotchi F.Anarbayevaning "Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish"²¹² nomli ishida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, elektron ta'lim platformalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini o'rtacha 20–30 foizga oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalarida raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta'lim ulushi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi sezilarli ravishda ortishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishning asosiy metodologik yondashuvi sifatida nazariy ma'lumotlarni tahlil qilish usulidan foydalanildi. Xususan, oliy ta'lim tizimining rivojlanishiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari qiyosiy va tizimli tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish, mantiqiy tahlil, taqqoslash hamda konseptual yondashuvlardan foydalanilib, mavjud nazariy

²⁰⁹ Altbach P. G. Global perspectives on higher education. – Baltimore : Johns Hopkins University Press, 2016. – C. 303.

²¹⁰ Rayevnyeva O. et al. MODELS OF INTERACTION BETWEEN ECONOMIC DEVELOPMENT AND HIGHER EDUCATION //Journal of Entrepreneurship & Sustainability Issues. – 2025. – T. 13. – №. 2.

²¹¹ S.Saloxitdinov. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning zamonaviy konsepsiyalari va innovatsion mexanizmlari: milliy va xalqaro tajribani taqqoslamali tahlil qilish asosida takomillashtirish yo'nalishlari //Academic literature. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 1-128.

²¹² Anarbayeva F. U., Abdullayeva M. V. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi //The Journal of Economics, Finance and Innovation. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 1-9.

qarashlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq anglash maqsadida ilmiy manbalardagi g'oyalar tizimlashtirilib, ularning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi.


Zamonaviy oliy ta'lim tizimi bugungi globallashuv jarayonlari, ilm-fan taraqqiyoti hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish talablari ta'sirida tubdan yangilanib bormoqda. Natijada oliy ta'lim tizimining mazmuni, tashkiliy tuzilmasi va ta'lim jarayonini tashkil etish usullari ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Tadqiqot jarayonida zamonaviy oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Mazkur tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy oliy ta'lim tizimi bir qator muhim yo'nalishlar orqali rivojlanib, ular orasida raqamlashtirish, talabaga yo'naltirilgan ta'lim modeli, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, xalqaro integratsiya, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda ta'lim sifatini monitoring qilish tizimi muhim o'rin tutadi.

Birinchi muhim xususiyat sifatida oliy ta'lim tizimining raqamlashtirilishi va texnologik integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish ta'limning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar va raqamli kutubxonalar talabalarga bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshirib, talabalarga o'quv materiallarini istalgan vaqt va makonda o'zlashtirish imkonini yaratadi. Natijada ta'lim jarayoni yanada samarali, interaktiv va ochiq tizimga aylanmoqda.

Ikkinchi muhim xususiyat talabaga yo'naltirilgan ta'lim modeli hisoblanadi. An'anaviy ta'lim tizimida asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyatiga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda talaba markaziy o'ringa chiqmoqda. Bunda talabalar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish, tanlov fanlari tizimi hamda loyiha va tadqiqot asosida o'qitish metodlari talabalarni faol bilim egallash jarayoniga jalb etadi. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi xususiyat sifatida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham katta e'tibor qaratmoqda. Shu sababli universitetlar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. Talabalar amaliyot o'tash, dual ta'lim dasturlarida qatnashish va real ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish orqali nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlaydi. Bu jarayon bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

To'rtinchi muhim xususiyat xalqaro integratsiya va akademik mobillik jarayonlarining kuchayishi bilan bog'liqdir. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi global ta'lim makonining ajralmas qismi sifatida rivojlanmoqda. Universitetlar o'rtasida xalqaro hamkorlik dasturlarining kengayishi, qo'shma ta'lim dasturlarining joriy etilishi hamda talaba va professor-o'qituvchilarning akademik almashinuvi bu jarayonning muhim ko'rinishlaridan biridir. Akademik mobillik talabalar va o'qituvchilarga turli mamlakatlarning ta'lim tajribasini o'rganish, yangi ilmiy g'oyalar va metodologiyalarni o'zlashtirish imkonini beradi.



1-rasm. Zamonaviy oliy ta'lim tizimning o'ziga xos xususiyatlari (muallif ishlanmasi).

Beshinchi muhim xususiyat ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatning rivojlanishi bilan bog'liq. Zamonaviy universitetlar nafaqat ta'lim beruvchi, balki ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi markaz sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Ilmiy laboratoriyalar, innovatsion markazlar, texnoparklar va startap loyihalarining rivojlanishi talabalarning ilmiy izlanishlarga jalb etilishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ilm-fan va ta'lim integratsiyasi yangi texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarni yaratish imkonini beradi.

Oltinchi muhim xususiyat ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish tizimining takomillashuvi hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilish uchun turli mexanizmlar qo'llanilmoqda. Xususan, xalqaro akkreditatsiya tizimlari, universitetlar reytinglari va ichki sifat monitoringi tizimlari ta'lim jarayonining samaradorligini baholash imkonini beradi. Kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi talabalarning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy ko'nikmalari va kasbiy malakalarini ham aniqlashga xizmat qiladi.

Quyidagi 1-jadvalda an'anaviy oliy ta'lim tizimi (XX asr oxiri) hamda zamonaviy oliy ta'lim tizimi (2025–2026 yillar) o'rtasidagi asosiy farqlar turli yo'nalishlar bo'yicha qiyosiy tarzda keltirilgan. Jadval orqali oliy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta'lim jarayonining mazmuni, texnologik ta'minoti hamda talabaning o'rnini qanday o'zgarib borayotganini ko'rish mumkin. Ushbu tahlil zamonaviy oliy ta'limning innovatsion, moslashuvchan va kompetensiyaga yo'naltirilgan tizimga aylanib borayotganini ko'rsatadi. Jadvaldagi ma'lumotlar ta'lim jarayonida texnologiyalar, talabalar faolligi va mehnat bozori bilan integratsiyaning ortib borayotganini ifodalaydi.

1-jadval

An'anaviy va zamonaviy oliy ta'limning qiyosiy tahlili

Yo'nalish	An'anaviy oliy ta'lim (XX asr oxiri)	Zamonaviy oliy ta'lim (2025–2026)
O'quv shakli	Asosan auditoriya darslari	Gibrid + onlayn + VR/AR
Talaba roli	Passiv qabul qiluvchi	Faol, o'z traektoriyasini tanlovchi
Asosiy maqsad	Diplom olish	Kompetensiya + ishga tayyorlik + umrbod o'rganish
Texnologiya	Kitob, doska	AI, big data, LMS, adaptive platforms
Moslashuvchanlik	Qat'iy jadval, semestr	Modulli, self-paced, multiple entry/exit
Ish beruvchi bilan aloqa	Zaif	Kuchli (dual ta'lim, internship, co-design dasturlari)
Natija	Bilim hajmi	Ko'nikma + portfolio + real loyihalar

Jadvalning dastlabki qatorlarida o'quv shakli, talabaning roli, asosiy maqsad va texnologiyalar bo'yicha muhim farqlar ko'rsatilgan. An'anaviy oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoni asosan auditoriya darslariga asoslangan bo'lsa, zamonaviy tizimda gibrid, onlayn hamda VR/AR texnologiyalariga asoslangan ta'lim shakllari keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, an'anaviy tizimda talaba passiv bilim qabul qiluvchi sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda u faol ishtirokchi bo'lib, o'zining individual ta'lim trayektoriyasini tanlash imkoniyatiga ega. Ta'limning asosiy maqsadi ham o'zgarib, avvallari diplom olish asosiy natija sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi davrda kompetensiyalarni shakllantirish, ishga tayyor kadrlarni tayyorlash hamda umrbod o'rganish tamoyillariga e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, texnologik jihatdan ham katta farq kuzatiladi: an'anaviy tizimda kitob va doska asosiy vosita bo'lgan bo'lsa, zamonaviy tizimda sun'iy intellekt, big data, LMS va adaptiv ta'lim platformalari keng joriy etilmoqda.

Jadvalning keyingi qatorlarida moslashuvchanlik, ish beruvchilar bilan hamkorlik va ta'lim natijalari o'rtasidagi farqlar aks etgan. An'anaviy ta'lim tizimi qat'iy jadval va

semestr tizimiga asoslangan bo'lib, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi past darajada bo'lgan. Zamonaviy oliy ta'lim esa modulli, self-paced (talabaning o'z tezligida o'rganishi) hamda bir necha kirish va chiqish imkoniyatlariga ega bo'lgan tizim sifatida shakllanmoqda. Shuningdek, ish beruvchilar bilan aloqalar ham sezilarli darajada kuchaygan bo'lib, dual ta'lim, amaliyot (internship) hamda ta'lim dasturlarini birgalikda ishlab chiqish kabi mexanizmlar joriy etilmoqda. Natijada ta'lim yakunida faqat nazariy bilim hajmi emas, balki amaliy ko'nikmalar, portfolio va real loyihalarda ishtirok etish kabi natijalar muhim ko'rsatkichga aylanmoqda. Bu esa zamonaviy oliy ta'lim tizimi mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy oliy ta'lim tizimi an'anaviy ta'lim modeliga nisbatan sezilarli darajada takomillashib, raqamli texnologiyalar, talabaga yo'naltirilgan yondashuv, mehnat bozori bilan integratsiya hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tizimda asosiy e'tibor nazariy bilim berishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabaning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ishga tayyor mutaxassis sifatida shakllanishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, gibrid ta'lim shakllari, sun'iy intellekt va raqamli platformalarning joriy etilishi ta'lim jarayonining samaradorligi va moslashuvchanligini oshirmoqda. Natijada zamonaviy oliy ta'lim tizimi innovatsion rivojlanish, xalqaro integratsiya hamda iqtisodiyot ehtiyojlariga mos malakali kadrlarni tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. *Takliflar:*

1. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xususan LMS platformalari, sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari va virtual laboratoriyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

2. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim modelini rivojlantirish orqali individual ta'lim trayektoriyalarini kengaytirish, tanlov fanlari ulushini oshirish hamda loyiha asosida o'qitish metodlarini keng qo'llash zarur.

3. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, dual ta'lim dasturlari va amaliyot tizimini takomillashtirish orqali bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish lozim.

4. Ta'lim jarayonida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlari, akademik mobillik va xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

5. Oliy ta'lim sifatini baholash va monitoring tizimini takomillashtirish, kompetensiyaga asoslangan baholash mexanizmlarini joriy etish hamda ta'lim natijalarini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altbach P. G. *Global perspectives on higher education*. – Baltimore : Johns Hopkins University Press, 2016. – C. 303.

2. U.Sh.Habibjonov. *Analysis of free economic zones in Uzbekistan//Economics and Innovative Technologies*. – 2024. – T. 12. – №. 5. – C. 88-95.

3. Rayevnyeva O. et al. *Models of interaction between economic development and higher education //Journal of Entrepreneurship & Sustainability Issues*. – 2025. – T. 13. – №. 2.

4. U.Sh.Habibjonov. "Analysis of factors influencing the volume of foreign direct investments in the republic of Uzbekistan: correlation analysis." *Экономика и социум 4-1 (131) (2025): 200-207*.